



Sodiqov Islombok Otabek o'g'li

G'ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

AXBOROTLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot makoni hamda undagi jarayonlarning amalga oshirilishi haqida so'z boradi. Bundan tashqari, yoshlarning tarbiyasi, ongi va qalbiga chuqr kirib borayotgan internet tarmog'i, uni keltirib chiqish sabablari hamda natijalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: axborot, internet, yoshlar, globallashuv, texnologiya.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan axborot texnologiyalari sharoitida yoshlarnimizni informatsion xurujlardan asrash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi davrda insoniyat axborotlashgan jamiyat sharoitida yashamoqda. Bunday nom jamiyat boyligini yaratishda axborot, bilimning hal qiluvchi rolini ta'kidlash bilan kiyoyalanmaydi, balki jamiyat va inson hayotida axborotning o'rni tubdan o'zgarganligini, ijtimoiy sohalarda kechayotgan barcha jarayonlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatayotganligini ham bildiradi. Albatta, har qanday jamiyatda axborot bo'lган. Axborot inson hayotining atributiv xususiyatidir. Binobarin jamiyat takomillashgan sari axborotning jamiyat va insonga ta'siri ham kuchayib kelgan.

Hozirgi kunda axborotni qabul qilish va uni uzatishning barcha vositalari keng tarqalib ketdi. Jahondagi barcha ommaviy axborot vositalari bulardan kerakligicha foydalanmoqda. Birgina jadal rivojlanayotgan internet tizimining taraqqiy topishi ayrim g'arazli kuchlar uchun asosiy qurol bo'lib ulgurdi. Shu sabab axborot maydonida muvozanatni saqlash uchun inson, albatta, mustaqil ong va fikrga ega bo'lishi lozim.

Axborotni voqeа-hodisa, shuningdek, jamiyat va davlat haqidagi ma'lumot deb bilamiz, lekin shuning barobarida u bugun turli maqsadlarni o'zida qamragan va kishilar ongini zabit etishga qaratilgan xurujining eng qulay quroli vazifasini ham o'tay boshladi.

Axborot xuruji muayyan tashqi kuchlar tomonidan ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir etishning mafkuraviy omillaridan bo'lib, jamiyat turmush tarzi va mentalitetidagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun unga moddiy, ma'naviy, ruhiy ta'sir o'tkazish asnosida siyosiy maqsad va muddaolarni amalga oshirish majmuasiga aytildi.

Axborot olish borasidagi aholining eng faol qismi yoshlar hisoblanadi. Ma'lum darajada ijtimoiy foyda keltirayotgan axborotlarning iste'molchilar, ya'ni yoshlar tomonidan olinishi yaxshi, ammo hech qanday asosga ega bo'lman, odamlarga zarar yetkazishga, o'z-o'zini o'ldirishga, hattoki, insoniyatga qarshi qurol ko'tarishga undovchi axborotlarga ham aynan yoshlar ega bo'lmoqdalar. Gohida beozorgina bo'lib ko'ringan oddiy reklama ham muayyan mafkuraviy maqsadlarni o'zida ifoda etadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning "hammamizga yaxshi ayon bo'lishi kerakki, "axborot asri" deb nom olgan XXI asrda hech qaysi davlat yoki jamiyat o'zini temir devor bilan o'rab olmaydi. Ayni paytda ahvol shunday ekan, deb qo'l qovushtirib o'tirish ham to'g'ri kelmaydi. Bunday tahdidlarga javoban biz ham soda bo'lmasdan zarur chora-tadbirlarni ko'rishimiz kerak. Ayniqsa, farzandlarimiz qalbida kelajakka ishonch tuyg'usini amalga oshirish uchun ularning asosli va haqqoniy ma'lumot va axborotlarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi"¹, -degan fikrlari naqadar o'rinali ekanligini aytishimiz mumkin.

¹ I.A.Karimov Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: "O'zbekiston", 2009 y



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan bo'lgan yig'ilishda ommaviy axborot vositalari soni 2016 yilga nisbatan qariyb 30 foizga ortib, 1962 taga yetganligini ta'kidlab o'tdi.

Internet to'ri ko'pgina yoshlarni o'z domiga tortayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun ham bugungi kunda fanda informatsion borliq degan ilmiy termin ishlatala boshlandi. Ayni damda bugungi kunning asosiy muammolaridan biri informatsion borliqning globallashuv jarayonidir. Olimlar tomonidan unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Informatsion borliq- axborotni yaratish, qayta ishslash va foydalanish bilan bog'liq inson faoliyatining bir sohasi bo'lib, o'zida individual,hamda jamoat ongi informatsion-telekommunikatsion infratuzilma va axborotni jamlaydi"². Bugungi kunda internet bilan kirib kelayotgan informatsiyalarning ko'pchiligi yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bunday salbiy axborotlardan saqlanish uchun har birimiz milliy ruhda tarbiya topishimiz, dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashimiz, o'z milliy madaniyatimiz qolib "ommaviy madaniyat" girdobiga tushib qolmasligimiz, atrofimizda sodir bo'layotgan voqeahodisalar to'g'risida haqqoniy ma'lumotlarga ega bo'lishimiz zarur.

Axborot asrida yashayotgan ekanmiz, har qanday buzg'unchi g'oyalarga nisbatan kuchli mafkuraviy immunitetni hosil qilish va ayniqsa, g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashmog'imiz kerak bo'ladi.

Aynan bugungi kunda Internet ijtimoiy tarmog'idan ham ezgulik ham yovuzlik maqsadida foydalanilib klinmoqda. Zero "... bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin"³.

Hozirgi geosiyosiy jarayonlar shuni ko'rsatmoqdaki, yangi asr mafkuralar to'qnashushi, g'oyalalar urushiga aylanib ketdi. Chunki ayrim mamlakatlarning siyosiy kuchlar tomonidan davlatlarni o'z izmiga solish yo'lida, avvalo "soxta demokratiya" qadriyatlarini mintaqalarga yoyish va keskinlik o'chog'ini avj oldirish orqali boshqarishga harakat qilmoqda. Bunda asosan, internet tarmoqlaridan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Chunki, internet tarmog'i siyosiy kuch sifatida axborot urushining asosiy qurollaridan biriga aylandi va undan turli g'oyalarni targ'ib etish orqali omma ongiga buzg'unchi va aggressiv mafkuralarni singdirish, tartibsizlik, buzg'unchilikni targ'ib etish vositasi sifatida foydalanoqda.

Yuqoridagilarni umumiyl qilib xulosa qiladigan bo'lsam, bugungi kunda yoshlarimizni informatsion xurujlardan himoyalash, ularning ongida milliy mentalitetimiz va qadriyatlarimizni yanada chuqurroq singdirish- bugungi kun pedagoglarining oldiga qo'yan asosiy vazifasi bo'lmosg'i lozim.

Foydalanalgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent: "O'zbekiston", 2017 yil
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" Toshkent: "Ma'naviyat", 2008 yil
3. I.A.Karimov "Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish"-Toshkent :"O'zbekiston", 2009 yil
4. O.Jumayev Informatsion borliq. Jamiyat va boshqaruv. 2006 yil. 4-sod. 70-72 betlar

² O.Jumayev Informatsion borliq. Jamiyat va boshqaruv. 2006 yil. 4-sod. 70-72 betlar

³ I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 y, 113-b